



XITOIY TILI “BO`LMOQ” BOG`LAMASINING TAHLILI

*To`xtamishev Abdurasul Abdurazzoq o`g`li,
SamDCHTI o`qituvchisi*

**Kalit so`zlar:** 是 “bo`lmoq” bog`lamasi, fe`lning kesim vazifasi, ravish vazifasi, ot – kesim, konstruksiyalar, zamonlar.

Xitoy tili Xitoy – tibet tillari oilasiga mansub bo`lib, bu tilda Yevropa tillariga xos bo`lgan jihat deyarli uchramaydi. Ammo ayrim hollarda bu ikki til o`rtasida ba`zi o`xshash jihatlarni ko`zimiz ilg`aydi. Bu holatni tillar o`rtasidagi o`xshash jihatlari yoki bir tilning ikkinchi tildagi ekvivalentligi deb atash mumkin.

Ingliz tilini o`rganganlar yoxud o`rganuvchilarga yaxshi tanishki, bu tilda bo`lmoq “to be” fe`li o`ziga xos xarakterga ega. Ot-kesimli gaplarni esa ushbu fe`l ishtirokisiz tasavvur etish mumkin emas. Xitoy tili ham o`zining ana shunday “bo`lmoq” fe`liga ega bo`lib, u juda ko`p va xilma - xil xarakterli xususiyatlarga ega. Yana bir jihati shundaki, xitoyliklar ushbu “bo`lmoq” fe`lini universal fe`l deb ham atashadi. Quyida “是 shi” bo`lmoq fe`lining vazifalari, qo`llanilishiga atroflicha to`xtalib o`tamiz:

Xitoy tilida “bo`lmoq” fe`li “非动作动词 *fei dongzuo dongci*” deb atalib, harakat fe`llari bo`lmagan fe`llarni o`z ichiga olib, muhokama va tasdiqni ifodalashga xizmat qiladi. Ayrim hollarda o`rganuvchilar “是 bo`lmoq” fe`li ishtirok etgan gaplarning strukturasini osonlik bilan o`rganishlari mumkin. Ammo ayrim hollarda esa, “是” ishtirok etgan gaplarning mag`zini chaqish uchun anchagina tajriba kerak bo`ladi. “是 bo`lmoq” fe`li ishtirokidagi gaplarning dastlabki turiga misol qilib, quyidagi A+是+A, B 是B konstruksiyasiga to`xtalamiz:

Bu turdagi gap A va B ni ta`kidlash uchun ishlatiladi, undan so`ng esa, gapda alohida ta`kidlangan A va B ga qisqacha ta`rif ham keltirish mumkin. Ayrim hollarda esa ta`rifsiz ham kelishi mumkin. Konstruksiya yanada aniqroq bo`lishi uchun quyidagi misollarni keltirib o`tamiz:

“你是你 我是我 咱们不一样”.

“Ni shi ni, wo shi wo, zanmen bu yiyang”.

“Sen — sen, men — men, ikkalamiz har xilmiz”.

Gapning tarjimasidan ham anglashilib turibdiki, bu gapda bo`lmoq 是fe`li “sen” va “men” hamda “sen” va “men”ing har xilligimizga ishora qilyapti.

“聪明是聪明，漂亮是漂亮，这两不是一回事”.

“Congming shi congming, piaoliang shi piaoliang, zhe lia bu shi yi hui shi”.

“Aqli aqli, go`zal go`zal, bu ikkisi bir narsa emas”.

Ikkinchi misolda ham “bo`lmoq” fe`li “ta`kidlash, ajratib ko`rsatish” kabi vazifalarni bajaryapti.

Navbatdagi konstruksiyada esa, A qat`iy nazar, -sa-da vazifasida keladi: “A 是A, 不过....”. Biroq, gapning ikkinchi qismidagi ammo inkor bog`lovchisi ishtirok etganini hisobga olsak, ushbu konstruksiyada ham “是 bo`lmoq” fe`li ta`kidlash ma`nosida kelayotganini ko`rish mumkin:

“这件衣服贵是贵，可质量很好”.

“Zhe jian yifu gui shi gui, ke zheliang hen hao”.

“Bu kiyim qimmat bo`lsa – da, ammo sifati juda yaxshi”.

“东西好是好，就是价钱贵了一些”.

“Buyum yaxshi, ammo narxi biroz qimmatroq”.

是 bo`lmoq fe`li ko`pincha gapning boshida kelib, 是dan keyingi qismni ta`kidlashga xizmat qiladi“是A 就都..”. Bu konstruksiya xitoy tilidagi boshqa bir “无论什么凡是只要是.. wulun shenme/ fanshi/ zhi yao shi” konstruksiyasiga sinonim bo`lib, istisnosiz, mustasno bo`lmagan kabi ma`nolarni ifodalaydi. “是” dan keyingi A esa gap tarkibida ega yoki to`ldiruvchi gap bo`lagi vazifalarida kelishi mumkin.

“是学生就能回答这个问题”.



“Shi xuesheng jiu neng huida zhe ge wenti”.

“Talaba, bu savolga albatta javob bera olishi kerak”.

“是电影他都喜欢看”.

“Shi dianying ta dou xihuan kan”.

“Film bo'lsa, (qanaqa film bo'lishidan qat'i nazar) u hammasini sevib tomosha qiladi”.

Yuqorida birinchi gapda “是” dan keyingi “talaba” so'zi ega vazifasida, ikkinchi gapda esa, aksincha to'ldiruvchi vazifasida qo'llanilgan.

“是不是....?” konstruktsiyasida “是” ishtirok etgan bu turdagi gaplar asosan? ritorik gaplarda ishlatilib, u gap tarkibida uch xil o'rinda kelishi mumkin:

gap boshida;

ega va kesim o'rtasida;

oxirida.

“是” ning gap tarkibida turli o'rinda kelishi gap mazmuniga ham ta'sir etib, turli ma'nolarni ifodalaydi:

1. “是不是你们在找我?”

“Shi bu shi nimen zai zhao wo?”

“Sizlar meni qidirmayapsizlarmi?”

2. “你们是不是在找我”.

“Nimen shi bu shi zai zhao wo”

3. “你们在找我是不是?”

“Nimen zai zhao wo shi bu shi”.

Yuqoridagi misolda keltirilganidek, “是不是” - “ko'chish” xususiyatiga ega bo'lib, o'rganuvchilardan ushbu konstruktsiyaga chuqurroq yondashishlari talab etiladi.

“是” ishtirok etgan gaplarning xususiyatiga alohida to'xtaladigan bo'lsak, “saqlash” ma'nosidagi gap tarkibida ega o'rin – joyni ifodalovchi so'z bo'lib, bir vaqtning o'zida to'ldiruvchi ham o'rin – joyni ifodalovchi so'z bolishi mumkin. Yana bir jihati shundaki, gap tarkibidagi to'ldiruvchi

aniq ma'noni ifodalab, bir yoki bir nechta ma'noni bildirishi mumkin, masalan:

“学校前边是邮局”.

“Xuexiao qianbian shi youju”.

“Maktabning old tarafida pochta”.

Yuqoridagi misolda “邮局” – ‘pochta’ so'zi aniq ma'noda kelib, bu gapda “是” maktabning old tarafida aynan pochta joylashganligini ifodalab kelyapti.

“我旁边是两个日本女同学”.

“Wo pangbian shi liangge Riben nu tongxue”.

“Mening yonimda yaponiyalik ikki talaba”.

Ushbu misolda ham “是” – “bo'lmoq” fe'li yonimdagi talabalar boshqa mamlakatlardan emas, aynan yaponiyadan ekanligini ta'kidlagan.

“是” ning yana bir xususiyati shundaki, u o'zidan keyin sifat hamda ravishni ham olishi mumkin. Bunday hollarda “是” fe'ldan oldin kelib, “haqiqatdan, ayniqsa” degan ma'nolarni ifodalaydi. Misol tariqasida quyidagilarni keltirish mumkin:

“今天的天气是不错”.

“Jintian de tianqi shi bu cuo”.

“Bugun havo juda ajoyib”.

“太晚了，咱们是该走了”.

“Tai wan le, zanmen shi gai zou le”.

“Kech bo'lib qoldi, biz ketishimiz lozim va hokazo”.

Yuqoridagi qoidalaridan kelib chiqib, “是” - “bo'lmoq” fe'li xitoy grammatikasida gap tuzilishining asosiy elementi hisoblanadi, degan xulosaga kelish mumkin. Juda ko'p va xilma – xil vazifalari hamda ishlatilish o'rniga ko'ra, bo'lmoq fe'li haqiqatan sermahsul va bo'yoqdordir. Boshqa tillardan farqli o'laroq, ushbu fe'lning zamon va shaxslarda tuslanmasligidan kelib chiqib, xitoy tilini o'rganuvchilarga qiyinchilik tug'dirmaydi xulosaga kelishimiz mumkin.

Adabiyotlar

1. Huang, C.-T James, Logical Relations in Chinese and the Theory of Grammar. New-York and London. 1998.
2. Zhan Fang Qiong, The Structure and function of the Chinese copula construction. Shanghai. 2016.
3. 现代汉语实用语法分析, 第二版, 上册, 清华大学出版社, 北京, 2016.
4. 现代汉语实用语法分析, 第二版, 下册, 清华大学出版社, 北京, 2016.



5. www.baidu.com

Tuxtamishev A. The analysis of the auxiliary verb with the meaning “to be” in the Chinese language. This article discusses details of the verb “是”, which is the main component of Chinese grammar, and discusses its basis in building various structures, studies its meaning and functions.

Тухтамишев А. Анализ глагола-связки со значением “быть” в китайском языке. В этой статье подробно анализируется глагол «是», который является центром китайской грамматики и обсуждается его основа для построения различных конструкций, исследуется его значение и функции.